



## QASHQADARYO VILOYATI MIRISHKOR TUMANI HOKIMINING QARORI

181000 O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani Yangi Mirishkor shaharchasi, tel: 652-18-58, 652-10-34, faks: 652-14-65, 652-19-48

2023 - yil 22 - iyun

110-4-63-Q/23

Mirishkor tuman hokimligi

### Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini ajratish bo'yicha onlayn auksionga yer maydonlarini joylashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2022-yil 14-fevraldag'i 71-sod qaroriga muvofiq, Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi, Mirishkor tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo'yicha Mirishkor tumani inspeksiyasi hamda Qashqadaryo viloyati IIB YHXB YXTENQBning xulosalarni, shuningdek "O'ZGASHKLITI"ning topografik xaritasini va Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi Mirishkor tumani filialining kadastr yig'ma jildini inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 6 va 25-moddalariga asosan,

#### QAROR QILAMAN:

1. Tumanda bo'sh yer uchastkasi tadbirkorlik va shaharsozlik foaliyatini amalga oshirish uchun "YERELEKTRON" avtomatlashgan axborot tizimi orqali ro'yxatdan o'tgan vakolatli organlar bilan kelishilganligi va ijobjiy xulosalar olinganligi, kadastr yig'ma jildi tayyorlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Mirishkor tumani hududlarida joylashgan ilovaga muvofiq 5 (**besh**) ta bo'sh yer maydoni "E-auksion" elektron savdo platformasiga qo'yilsin.
3. Ushbu yer uchastkalari "E-IJRO-AUKSION" yagona elektron savdo

maydonchasida elektron auksionga chiqarilganidan so‘ng tuman hokimligi axborot xizmati va matbuot kotibi (A.Yazdurdiyev) Mirishkor tuman hokimligi rasmiy veb-saytlarida joylashtirilishi ta’milansin.

4. Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi Mirishkor tumani filiali (J.Bayramov)ga, mazkur qaror asosida tuman hokimligi zaxirasiga olingan yer maydonini Davlat kadastro ro‘yxatidan o‘tkazish vazifasi topshirilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tumani hokimining o‘rinbosarlari A.Sariqov va A.Eshmurodovlar zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**Sh.Ch.Sanayev**

Mirishkor tuman hokimining  
2023-yil 22-iyundagi  
110-4-63-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

**Mirishkor tuman hududlarida joylashgan bo‘sh yer maydoni “E-auksion” elektron savdo platformasiga qo‘yish uchun tanlangan loyihibalar ro‘yxati**

Nº	Yer uchastkasi raqami	Tuman	Mahalla	Maydoni (ga)	Maqsadi	Qurilishga ruxsat berilgan obyekt turlari
1	MG1710233004/4	Mirishkor tumani	O‘zbekiston MFY	0,129	Tadbirkorlik uchun	oshxona, kafelar, Savdo uylari
2	MG1710233032/2	Mirishkor tumani	Yangi qishloq MFY	0,003	Tadbirkorlik uchun	oshxona, kafelar, Savdo uylari
3	MG1710233003/1	Mirishkor tumani	Oqmachit MFY	0,004	Tadbirkorlik uchun	oshxona, kafelar, Savdo uylari
4	MG1710233026/2	Mirishkor tumani	Do'stlik MFY	0,039	Tadbirkorlik uchun	oshxona, kafelar, Savdo uylari
5	MG1710233010/1	Mirishkor tumani	Avvona MFY	0,015	Tadbirkorlik uchun	oshxona, kafelar, Savdo uylari